MALAYZIYA VA O‘ZBEKISTONDA DINIY TASHKILOTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY HAMDA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Anvar Mustafoyev

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Malayziya va O‘zbekistonda diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy hamda institutsional mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda har ikki davlatda diniy erkinlikni ta’minlash, davlat va din munosabatlarini muvozanatlashtirish, ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar o‘rganilgan. Vakolatli davlat organlari faoliyati, ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari va nazorat mexanizmlarining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Tahlil natijasida umumiy va farqli tomonlar aniqlanib, samarali boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *diniy tashkilotlar, huquqiy va institutsional mexanizmlar, diniy erkinlik, davlat va din munosabatlari, ijtimoiy barqarorlik, Malayziya, O‘zbekiston.*

Abstract. This article provides a comparative analysis of the legal and institutional mechanisms for regulating the activities of religious organizations in Malaysia and Uzbekistan. The study examines the regulatory framework aimed at ensuring religious freedom, balancing state and religious relations, and maintaining social stability in both countries. The specifics of the activities of authorized state bodies, registration procedures, and control mechanisms are highlighted. As a result of the analysis, common and distinctive aspects were identified, and scientific conclusions and practical recommendations for improving effective management were developed.

Keywords: *religious organizations, legal and institutional mechanisms,*

religious freedom, state and religion relations, social stability, Malaysia, Uzbekistan.

Kirish

XXI asrda din nafaqat shaxsiy e’tiqod sohasi, balki ijtimoiy barqarorlik, siyosiy legitimlik va milliy xavfsizlik bilan bog’liq omil sifatida namoyon bo’lmoqda. Shu bois, davlatlar diniy erkinlikni ta’minlash bilan birga radikallashuvning oldini olish, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash va huquqiy tartibotni saqlash o’rtasida murakkab muvozanatni ta’minlashi zarur. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati Malayziya va O’zbekiston tajribasini qiyosiy tahlil qilish orqali turli huquqiy tizimlar va institutsional yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga qaratilganida namoyon bo‘ladi. Malayziya federativ va ko’p konfessiyali jamiyat sifatida diniy boshqaruvning differensial modelini qo’llasa, O’zbekiston sekulyar davlat tamoyillari asosida diniy sohani markazlashgan tartibga solish tizimini rivojlantirgan. Ushbu farqlarni tizimli o’rganish davlat va din munosabatlarini tartibga solishda nazariy va amaliy yondashuvlarni chuqurlashtirish imkonini beradi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, u diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, huquqiy asoslarni optimallashtirish va institutsional samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqadi.

Asosiy qism

Malayziya ko’p millatli va ko’p dinli jamiyat sifatida shakllangan davlat bo’lib, unda islom rasmiy davlat dini sifatida e’tirof etiladi, biroq boshqa dinlarga ham tinchlik va hamjihatlik sharoitida amal qilish huquqi berilgan. 1957-yilda mustaqillikka erishgach qabul qilingan Federal Konstitutsiya mamlakatdagi diniy siyosatning asosiy normativ-huquqiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu konstitutsiyaviy tizim diniy erkinlikni kafolatlash, davlat va din o’rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks mexanizmlarni o’z ichiga oladi. Malayziya Federal Konstitutsiyasining 3-moddasiga muvofiq, “Islom Malayziya Federatsiyasi dini hisoblanadi, ammo Federatsiyaning

boshqa hududlarida boshqa dinlar tinchlik va hamjihatlikda amal qilinishi mumkin.” Ushbu norma bir tomondan islomning alohida maqomini mustahkamlasa, boshqa tomondan diniy plyuralizmni inkor etmaydi. Konstitutsiyaning 11-moddasi diniy erkinlikning asosiy kafolati sifatida xizmat qiladi. Unda har bir shaxsning o’z diniga e’tiqod qilish, uni amalda bajarish va muayyan shartlar asosida targ’ib qilish huquqi mustahkamlangan. Biroq 11-moddaning 4-qismi federal va shtat hukumatlariga musulmonlar orasida boshqa dinlarni targ’ib qilishni nazorat qilish yoki cheklash vakolatini beradi [1]. Ushbu cheklov ijtimoiy barqarorlikni saqlash va diniy ziddiyatlarning oldini olish maqsadida joriy etilgan.

Konstitutsiyada fuqarolarga diniy erkinlik buzilgan hollarda sudga murojaat qilish imkoniyati ham berilgan. Federal qonunlarning shtat qonunlaridan ustunligi prinsipi mavjud bo’lsa-da, islom huquqiga oid masalalar asosan shtatlar vakolatiga kiradi. Bu esa Malayziyada murakkab, ikki darajali huquqiy tizim shakllanishiga olib kelgan. Bir tomondan fuqarolik sudlari umumiy huquqiy masalalarni ko’rib chiqadi, ikkinchi tomondan esa shariat sudlari faqat musulmonlarga taalluqli shaxsiy va oilaviy huquq masalalari bilan shug’ullanadi. 1988-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan 121(1A)-modda ushbu dual tizimning elementiga aylandi. Unga ko’ra, fuqarolik sudlari shariat sudlari vakolatiga kiruvchi masalalarga aralasha olmaydi. Bu norma shariat sudlarining mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan bo’lsa-da, amaliyotda yurisdikasion ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda [2]. Ayniqsa dinni o’zgartirish (konversiya), oilaviy nizolar yoki farzandlar ustidan vasiylik masalalarida fuqarolik va shariat sudlari o’rtasidagi chegaralarning noaniqligi murakkab huquqiy vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Ko’plab holatlarda fuqarolik sudlari islomga oid masalalarda shariat sudlariga ustuvorlik beradi.

Konstitutsiyaning 160-moddasi etnik malaylarni avtomatik tarzda musulmon sifatida ta’riflaydi. Bu norma diniy identifikatsiyani etnik identitet bilan bog’laydi. Natijada islomdan chiqish masalasi (apostaziya) murakkab huquqiy va siyosiy

masalaga aylanadi. Amaliyotda shariat sudlari bunday konversiyalarga ehtiyotkorlik bilan yondashadi va ko'pincha ruxsat bermaydi [3]. Bu holat xalqaro inson huquqlari tashkilotlari tomonidan tanqid qilinib kelinmoqda. Malayziyada islomiy masalalarni tartibga solish asosan shtatlar darajasida amalga oshiriladi. Har bir shtatda diniy idoralar faoliyat yuritib, ular masjidlar boshqaruvi, imomlarni tayinlash va diniy nutqlar mazmunini nazorat qilish vakolatiga ega. Shariat qonunlari ham aynan shtatlar darajasida ishlab chiqiladi va qo'llaniladi, natijada ularning mazmuni va qo'llanish darajasi hududlar kesimida farq qiladi. Masalan, khalwat (nomahram erkak va ayolning yaqin munosabatda bo'lishi) bilan bog'liq qoidalar turli shtatlarda turlicha jazolarni nazarda tutadi, odatda esa ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki 3000 ringgit moliyaviy jarima qo'llaniladi.

Konstitutsiyaga muvofiq sultonlar o'z shtatlarida islomning oliy rahbarlari hisoblanadi. Ushbu institut diniy boshqaruvning markazlashmagan modelini ifodalaydi va federal hukumat bilan mahalliy diniy hokimiyat o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi [4]. Davlat tomonidan masjidlar va islomiy infratuzilmani moliyalashtirish amaliyoti mavjud, biroq boshqa din vakillari ham o'z mablag'lari hisobidan ibodat joylarini barpo etish huquqiga ega. Malayziya hukumati ayrim diniy yo'nalishlarni milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholab, ularni nazorat ostiga oladi. Rasmiy ro'yxatga kiritilgan 2015-yilda 56 ta "adashgan" diniy oqimlar mavjud edi [5], ammo 2026-yil berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 10 ta faol oqimlar mavjud, ular an'anaviy sunniy aqidaga zid deb hisoblanadi [6]. Bunday oqimlarga mansub shaxslar maxsus "reabilitatsiya" markazlariga yuborilishi mumkin. Bu markazlarda hukumat tomonidan tasdiqlangan diniy ta'lim beriladi va "to'g'ri" aqidaga qaytish targ'ib qilinadi. Ushbu amaliyot diniy erkinlik va davlat nazorati o'rtasidagi murakkab muvozanatni aks ettiradi.

Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda 1970-yil 31-avgustda joriy etilgan Rukun Negara tamoyillari ideologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu milliy konsepsiya

Xudoga ishonch, davlatga sadoqat, Konstitutsiya ustunligi, qonun ustuvorligi va axloqiy qadriyatlarni o’z ichiga oladi. Rukun Negara jamiyatda diniy bag‘rikenglikni shakllantirish va etnik-diniy nizolarning oldini olishga xizmat qiladi [7]. 1969-yilgi etnik to’qnashuvlardan so’ng ushbu tamoyillar milliy birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida keng targ’ib qilindi. Hukumat “3R” (race, religion, royalty) masalalariga nisbatan sezgir siyosat yuritadi. Adovat targ‘ib qiluvchi nutqlar va diniy nizolarni qo’zg’atuvchi faoliyat qonunchilik orqali cheklanadi [8]. Bu yondashuv ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qilsa-da, ba’zan so’z erkinligi bilan bog’liq bahslarni keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin jamiyat hayotida muhim o‘rin egallagan masalalardan biri davlat va din munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bo‘ldi. Ko‘p asrlik tarixiy tajribaga ega bo‘lgan yurtimizda turli dinlar va e’tiqodlar yonma-yon yashab kelgan. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston siyosatida diniy erkinlikni ta’minlash, davlatning dunyoviylik prinsipini saqlagan holda dinning ijtimoiy-ma’naviy rolini hurmat qilish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Buning huquqiy asoslari mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qator maxsus qonunlarda mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida davlatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy norma zamirida davlat va din munosabatlarini oqilona tartibga solish maqsadi yotadi. Dunyoviy davlat sifatida O‘zbekiston biron bir dinni davlat maqomiga ko‘tarmaydi, diniy marosimlar davlat ishlariga aralashtirilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb belgilangan. Bu normalar davlatning dunyoviylik tamoyilini aks ettiradi: davlat hech bir dinga ustunlik bermaydi, lekin fuqarolarning diniy e’tiqodlarini hurmat qiladi va ularni himoya qiladi.

Konstitutsiya fuqarolarning dinga munosabatidan qat'iy nazar, teng huquqliligini (19-modda) ham kafolatlaydi [9]. Ushbu asosiy qonun davlat va din o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning poydevori hisoblanadi.

Diniy erkinlik sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjat "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'lib, u 1991-yilda qabul qilingan va 1998-yilda yangi tahrirda tasdiqlangan, 2021-yilda esa yanada takomillashtirilgan. Ushbu Qonunning maqsadi fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash, diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish va ijtimoiy adolatni kafolatlashdir. Qonunda vijdon erkinligi fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslik huquqi sifatida ta'riflanadi. Hech kimni dinga majburlash, voyaga yetmaganlarni ularning xohishiga zid ravishda diniy tashkilotlarga jalb qilish taqiqlanadi. Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lib, bir dinga boshqasiga nisbatan imtiyoz yoki cheklov belgilashga yo'l qo'yilmaydi. Qonun diniy faoliyatni ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirgan, tashkilot tuzish uchun talab qilinadigan tashabbuskorlar soni kamaytirilgan va ko'rib chiqish muddati qisqartirilgan [10]. Bu islohotlar diniy bag'rikenglikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2025-yil 25-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi" muhim yangilik bo'ldi. Konsepsiyada diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi fuqarolarning vijdon erkinligi huquqlarini amalga oshirish uchun teng sharoitlar yaratish, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, diniy bag'rikenglik va dunyoviylikni ta'minlash deb belgilangan. Hujjatda dunyoviy davlatda umumjamiyat manfaatlari va vijdon erkinligi uyg'unligining shartlari – diniy aqidalarni qonunga xilof tarqatishni taqiqlash, diniy asosda siyosiy partiyalar tuzishni cheklash kabi jihatlar aks etgan [11]. Konsepsiya davlat va din munosabatlarini muvozanatlashtirishda strategik yo'l xaritasini taqdim etadi. Din ishlari bo'yicha

qo‘mita va boshqa idoralar faoliyati orqali bu siyosatni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan.

Davlat va din munosabatlarini muvozanatlashtirishda tamoyillar qonunlarda kafolatlangan: din davlatdan ajratilgan, lekin jamiyatdan ajralmagan. Davlat diniy tashkilotlar faoliyatiga aralashmaydi, ammo qonunga xilof harakatlarni, diniy adovat qo‘zg‘ash, ekstremizm yoki fuqarolar totuvligini buzishni oldini oladi. Jinoyat va Ma’muriy javobgarlik kodekslarida diniy sohada qonunbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida diniy ta’lim muassasalari rivojlantirilmoqda, xalqaro hamkorlik kuchaytirilmoqda va diniy bag‘rikenglik bo‘yicha xalqaro konferensiyalar o‘tkazilmoqda. Bu choralar muqaddas dinimizning sofligini asrash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan.

Ijtimoiy barqarorlikni saqlashda normativ-huquqiy asoslarning roli beqiyos. Diniy erkinlik ta’minlanmagan jamiyatlarda nizolar va beqarorlik kuchayishi mumkin. O‘zbekistonda qabul qilingan hujjatlar fuqarolarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish bilan birga, ekstremistik g‘oyalarga qarshi turishni ham nazarda tutadi. Dindan jamiyat va davlatga qarshi maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi. Bu muvozanat milliy birlikni mustahkamlaydi, chunki mamlakatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali. Diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyati erkinligi kafolatlanishi aholining turli qatlamlari o‘rtasida ishonchni oshiradi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka hissa qo‘shadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadri, huquq va erkinliklar ustuvorligi ta’kidlanadi. Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha farmonlar va konsepsiyalar bu yo‘nalishda muhim qadamdir. Natijada fuqarolar o‘z e’tiqodlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda, diniy tashkilotlar qonun doirasida faoliyat yuritmoqda, jamiyatda bag‘rikenglik muhiti shakllanmoqda.

Malayziyada diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazishning asosiy huquqiy manbasi Societies Act 1966 hisoblanadi. Ushbu qonunga ko‘ra, kamida yetti nafar

shaxsdan iborat bo‘lgan har qanday uyushma, jamiyat yoki assotsiatsiya davlat ro‘yxatidan o‘tishi lozim. Diniy tashkilotlar uchun ro‘yxatdan o‘tish formal jihatdan majburiy bo‘lmasa-da, amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki ro‘yxatdan o‘tmagan tashkilotlar yuridik maqomga ega bo‘lmaydi, davlat grantlaridan foydalana olmaydi va mulkiy huquqlarni amalga oshirishda cheklovlarga duch keladi. Shu sababli ro‘yxatdan o‘tish diniy tashkilotlar uchun legitimlik va institutsional faoliyatning zarur sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni Malayziyada Ichki ishlar vazirligi tarkibidagi Registrar of Societies (ROS) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu organ mamlakatdagi barcha nodavlat tashkilotlar, jumladan diniy uyushmalar ustidan ma’muriy nazoratni amalga oshiradi. Jarayon zamonaviylashtirilgan bo‘lib, eROSES onlayn platformasi orqali olib boriladi. Dastlab tashkilot nomi tasdiqlanishi kerak, bunda nom davlat ramzlari, qirollik yoki hukumat bilan bog‘liq bo‘lmasligi talab etiladi. Keyingi bosqichda kamida yetti nafar asoschi a’zo, muvaqqat qo‘mita va tashkilot ustavi shakllantiriladi. Ustavda tashkilotning maqsadlari, a’zolik mezonlari, boshqaruv tizimi, moliyaviy tartib va tugatish shartlari aniq ko‘rsatilishi lozim. Bu talablar Societies Actning ilovalarida batafsil bayon etilgan. Ariza bilan birga a’zolar ro‘yxati, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, yig‘ilish bayonnomalari va kichik miqdordagi davlat boji topshiriladi. ROS tomonidan ariza sinchkovlik bilan ko‘rib chiqiladi, zarur hollarda qo‘shimcha ma’lumotlar talab qilinadi. Agar tashkilotning maqsadlari jamoat tartibiga zid deb topilsa yoki hujjatlar to‘liq bo‘lmasa, ariza rad etilishi mumkin. Tasdiqlangan taqdirda esa tashkilot rasmiy sertifikatga ega bo‘lib, yuridik shaxs maqomini oladi [12]. Bu jarayon odatda bir necha oydan olti oygacha davom etadi.

Islomiy bo‘lmagan diniy tashkilotlar esa asosan ROS orqali ro‘yxatdan o‘tadi. Ayrim hollarda ular kompaniya shaklida ro‘yxatdan o‘tishni afzal ko‘rishadi, chunki bu ularga nisbatan yumshoqroq nazorat rejimini ta’minlaydi, garchi ayrim moliyaviy imtiyozlardan mahrum etsa ham. Ibodatxonalar qurilishi esa mahalliy hokimiyat

organlarining ruxsatiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ko‘pincha byurokratik to‘siqlar bilan murakkablashadi. Nazorat mexanizmlari Malayziyada keng va ko‘p darajali xarakterga ega. ROS tashkilot faoliyatini monitoring qilish, hisobotlar talab qilish, tekshiruv o‘tkazish va hatto ro‘yxatdan chiqarish vakolatiga ega. Agar tashkilot qonunlarni buzsa, moliyaviy shaffoflikni ta’minlamasa yoki jamoat tartibiga tahdid solsa, uning faoliyati to‘xtatilishi mumkin. Ichki ishlar vaziri keng diskretsion vakolatlarga ega bo‘lib, istalgan tashkilotni xavfsizlik yoki axloqqa zid deb topib, noqonuniy deb e’lon qilishi mumkin. Bu norma davlat xavfsizligini ta’minlash vositasi sifatida talqin qilinsa-da, uning subyektiv qo‘llanish ehtimoli ham mavjud. Islomiy sohada nazorat yanada qat’iyroqdir. Shtat diniy kengashlari masjid faoliyatini, diniy xayriyalarni va ta’limni to‘liq nazorat qiladi. JAKIM (Jabatan Kemajuan Islam Malaysia) esa milliy darajada diniy doktrinaning “tozaligini” saqlashga intilib, ayrim oqimlarni “milliy xavfsizlikka tahdid” deb e’lon qilishi mumkin [13]. Bu esa diniy plyuralizm doirasida muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Malayziyada diniy tashkilotlarni nazorat qilish tizimining asosiy xususiyati bu federal va shtat darajasidagi ikki pog‘onali boshqaruv tizimidir. Ushbu tizim bir tomondan ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi, boshqa tomondan esa diniy erkinlikning amaliy chegaralarini belgilaydi. Tanqidiy yondashuvlarga ko‘ra, islomiy bo‘lmagan tashkilotlarga nisbatan qo‘llaniladigan byurokratik cheklovlar tenglik prinsipiga zid bo‘lishi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi ijobiy funksiyalarni ham bajaradi. U tashkilotlarning shaffofligini oshiradi, moliyaviy hisobotdorlikni ta’minlaydi va ichki boshqaruvni institutsionallashtiradi. Yillik yig‘ilishlar, audit va saylov mexanizmlari orqali tashkilotlar faoliyati tizimli ravishda nazorat qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida din va davlat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish mustaqillikdan keyingi davrda izchil institutsional rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi 2021-yil

5-iyuldagi O‘RQ-699-sonli Qonunda diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, vakolatli davlat organlari faoliyati va nazorat tizimi kompleks tarzda belgilab berilgan. Diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi ushbu tizimning markaziy elementlaridan biridir. Qonunchilikka ko‘ra, diniy tashkilot – bu fuqarolarning dinga e’tiqod qilish, ibodatlarni amalga oshirish va diniy marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan, daromad olishni asosiy maqsad qilmaydigan ko‘ngilli birlashmadir. Ro‘yxatdan o‘tkazish vakolati adliya organlariga yuklatilgan: markaziy diniy boshqaruv organlari hamda diniy ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, hududiy tashkilotlar esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan ro‘yxatga olinadi. Bu yerda vakolatlarning hududiy taqsimlanishi davlat boshqaruvining markazlashgan, biroq ma’muriy jihatdan differensiallashgan modelini aks ettiradi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonining o‘ziga xos jihati uning soddalashtirilgan va raqamlashtirilgan shaklda amalga oshirilishidir. Tashkilotni tuzish bo‘yicha ta’sis yig‘ilishi o‘tkazilgan kundan boshlab olti oy ichida elektron murojaat yuborilishi lozim. Hujjatlar sonining qisqartirilishi, notarial tasdiqlash talablari bekor qilinishi va elektron tizimning joriy etilishi ma’muriy yukni kamaytirishga xizmat qiladi. Davlat boji ham sezilarli darajada pasaytirilgan bo‘lib, markaziy organlar uchun eng kam ish haqining 20 baravarigacha, mahalliy tashkilotlar uchun esa 10 baravarigacha etib belgilangan. Ro‘yxatdan o‘tkazish muddati bir oydan oshmaydi, bu esa ma’muriy samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Qonunchilikdagi muhim yangiliklardan biri asoschilar sonining 100 nafardan 50 nafarga tushirilganidir. Bu o‘zgarish fuqarolarning diniy birlashmalarga uyushish erkinligini kengaytirishga xizmat qiladi. Ilgari mavjud bo‘lgan mahalla fuqarolari yig‘inining roziligi talabi bekor qilingan, bu esa ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etadi. Qayta ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni ham yengillashtirilgan bo‘lib, davlat boji oldingi miqdorning yarmiga teng.

Ro‘yxatdan o‘tmagan diniy tashkilotlarning faoliyat yuritishi qonunga zid deb hisoblanadi va ular tegishli javobgarlikka tortiladi [14]. Bu norma davlat tomonidan huquqiy tartibni ta’minlash instrumenti sifatida xizmat qiladi.

Vakolatli davlat organlari faoliyati diniy sohani boshqarishda tizimli va ko‘p darajali yondashuvni namoyon etadi. Ushbu tizimning markaziy subyekti O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita hisoblanadi. Mazkur qo‘mita diniy sohada yagona davlat siyosatini amalga oshiradi va qonun hujjatlarining ijrosini nazorat qiladi. Uning funksiyalariga davlat organlari va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, xalqaro diniy aloqalarni rivojlantirish hamda jamiyatda diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash kiradi. Qo‘mita diniy adabiyotlar va materiallarni ekspertizadan o‘tkazishda muhim rol o‘ynaydi. Adliya vazirligi esa ro‘yxatdan o‘tkazish va huquqiy monitoring funksiyalarini bajaradi. Ichki ishlar organlari diniy ekstremizm, noqonuniy missionerlik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish bilan shug‘ullanadi. Ushbu organlar o‘rtasidagi hamkorlik institutsional integratsiya tamoyiliga asoslanib, davlat siyosatining izchilligini ta’minlaydi. Davlat organlari diniy tashkilotlarning ichki e’tiqodiy faoliyatiga aralashmaydi, balki faqat qonuniylikni ta’minlash bilan cheklanadi. Bu esa sekulyarizm prinsipining amaliy ifodasidir.

Nazorat mexanizmlari esa diniy tashkilotlar faoliyatining qonun doirasida olib borilishini kafolatlaydi. Nazoratning uch asosiy shakli mavjud: huquqiy, ma’muriy va jamoatchilik nazorati. Adliya organlari tashkilotlarning ustavga muvofiq faoliyat yuritishini tekshiradi va yillik hisobotlarni talab qiladi. Ushbu hisobotlarda tashkilotning faoliyati, moliyaviy manbalari va a’zolari haqidagi ma’lumotlar aks etadi. Hisobot taqdim etilmagan taqdirda ogohlantirish beriladi va zarur hollarda sud orqali tashkilotni tugatish masalasi ko‘rib chiqiladi. Din ishlari bo‘yicha qo‘mita diniy materiallar va ta’lim dasturlarini ekspertizadan o‘tkazish orqali ideologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ichki ishlar organlari esa ekstremizm, radikalizm va noqonuniy diniy faoliyatni monitoring qiladi. Mahalla institutlari ham joylarda

ijtimoiy nazorat funksiyasini bajarib, diniy vaziyatni barqarorlashtirishga hissa qo‘shadi. Nazorat tizimining o‘ziga xos jihati uning preventiv xarakterga ega ekanligi va asosiy qarorlar sud tartibida qabul qilinishidir. Bu esa huquqiy davlat prinsiplariga muvofiq ravishda fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi. Nazorat mexanizmlari ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanadi. Diniy tashkilotlar o‘z faoliyatlari haqida oldindan xabar berish orqali davlat organlari bilan muvofiqlashgan holda ish olib boradi. Bu tizim bir tomondan xavfsizlikni ta’minlasa, boshqa tomondan vijdon erkinligini kafolatlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Malayziya va O‘zbekistonda diniy erkinlik konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan. O‘zbekistonda vijdon erkinligi dunyoviylik tamoyili asosida ta’minlansa, Malayziyada u islomning ustuvor maqomi bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu holat “cheklangan plyuralizm” modeli sifatida talqin qilinadi. Ikkala tizimda ham davlat diniy sohani to‘liq erkin bozorga topshirmaydi, balki uni tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi institutlar orqali boshqaradi. O‘zbekistonda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Malayziyada esa JAKIM va shtat diniy kengashlari ushbu funksiyani bajaradi. Diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish har ikki mamlakatda ham majburiy yoki de-fakto zaruriy mexanizm sifatida mavjud. Bu jarayon institutsional legitimlik, moliyaviy shaffoflik va huquqiy hisobdorlikni ta’minlashga qaratilgan. Nazorat tizimlari ham o‘xshash: huquqiy (qonunlar), ma’muriy (vakolatli organlar) va xavfsizlik (ichki ishlar organlari) komponentlaridan iborat.

Asosiy farq davlatning diniy neytrallik darajasida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston qat’iy sekulyar modelni qo‘llaydi, ya’ni davlat hech bir dinga ustunlik bermaydi. Malayziyada esa islom konstitutsiyaviy ravishda davlat dini sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, bu normativ ustuvorlikni yuzaga keltiradi. Natijada Malayziyada “dual huquqiy tizim” (fuqarolik va shariat sudlari) shakllangan, O‘zbekistonda esa yagona huquqiy tizim amal qiladi. Ikkinchi farq boshqaruvning markazlashuv darajasida:

O‘zbekistonda diniy siyosat markazlashgan va yagona davlat strategiyasi asosida olib boriladi. Malayziyada esa federalizm tufayli diniy boshqaruv shtatlar kesimida differensiallashgan, bu esa normativ fragmentatsiyaga olib keladi, shariat qonunlarining qo‘llanishi hududlarga qarab farqlanadi. Uchinchi farq diniy konversiya va identitet masalalarida namoyon bo‘ladi. Malayziyada etnik va diniy identifikatsiya o‘zaro bog‘langan bo‘lib, bu apostaziya masalasini murakkablashtiradi. O‘zbekistonda esa bunday bog‘liqlik mavjud emas va diniy tanlov huquqi nisbatan aniqroq huquqiy kafolatlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malaysia 1957 (rev. 2007) https://www.constituteproject.org/constitution/Malaysia_2007
2. Fernando, J. M. (2006). The Position of Islam in the Constitution of Malaysia. Journal of Southeast Asian Studies, 37(2), 249–266.
3. Tew, Y. (2018). Malaysia’s Invisible Constitution. In R. Dixon & A. Stone (Eds.), The Invisible Constitution in Comparative Perspective (pp. 376–400). Cambridge University Press.
4. Nazri, M., Yaacob, M., Arham, A. F., Darwis, D. A., & Mohamed, A. F. (2025). A sociological analysis of the Malay Sultanate in Malaysia. Journal of Posthumanism, 5(6), 4023–4036.
5. Police monitoring 56 deviant religious groups. (16.12.2015). https://www.malaymail.com/news/malaysia/2015/12/16/police-monitoring-56-deviant-religious-groups/1024193#:~:text=The%20Royal%20Malaysian%20Police%20(PDRM)%2C%20with%20the,a%20threat%20to%20public%20order%20and%20security
6. 10 deviant sects active in Malaysia, says Jakim DG. (23.01.2026). FMT Reporters https://www.freemalaysiatoday.com/category/nation/2026/01/23/10-deviant-

sects-active-in-malaysia-says-jakim-dg

7. Hamid, N. A., Zawawi, H. Y., Disa, M. N., & Mohamad Tahir, A. Z. (2021). Rukun Negara as a preamble to Malaysian Constitution. Pertanika Journal of Social Sciences and Humanities, 29(S2).
8. Abdul Hamid, A. F., & Che Mohd Razali, C. H. (2025). Race, religion and royalty in Malaysian politics. In K. Rajandran & S. N. Mohamad Jamil (Eds.), Race, religion, royalty in Malaysia (pp. 23–37). Palgrave Macmillan.
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/-6445145
10. 05.07.2021 yildagi O’RQ-699-son “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni https://lex.uz/docs/-5491534
11. 25.02.2025 yildagi O’RQ-1037-son “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni https://lex.uz/docs/-7404923
12. Pertubuhan Akta 1966 https://www.mdi.gov.my/wp-content/uploads/2025/06/Akta-832-Akta-Pertubuhan-1966.pdf
13. Top Islamic Organizations In Malaysia: A Comprehensive Guide. (06.01.2026). https://ftp.bills.com.au/lunar-tips/top-islamic-organizations-in-malaysia-a-comprehensive-guide-1767648535
14. 05.07.2021 yildagi O’RQ-699-son “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni https://lex.uz/docs/-5491534